

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА



2021 йил махсус сон



5. Yu. A. Aksenov, I. O. Boshkin, V. Kolmogorov. Vliyanie vodoroda na plastishnosti sопротивление деформации титанового сплава VT10 при температуре 750 град. С. //Физика металлов и металловедение, Том 67, выпуск 5, 1989, с. 993-999.
6. Patent RU 2188226, S10M125/00, опубликован. 27.08.2002

SHAFTOLI MEVASINING KIMYOVII TARKIBI VA INSON ORGANIZMIGA TA'SIRI.

Dehqonov Rahmatillo Sultonovich
Muminova Maftuna Rustamjon qizi
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Tibbiyotda ma'lum kasallikni davolash hamda shu kasalliklarning oldini olish uchun ishlataladigan o'simliklar dorivor o'simliklar deb ataladi. O'zbekiston florasi dorivor o'simliklarga juda boy xisoblanadi. Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash ham bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Tabiiy yo'l bilan yetishtirilgan mevalardan dori-darmon sifatida qo'llanilishi esa xalq tabobatining asosiy maqsadlaridan biri xisoblanadi.

Kalit so'zlar: Tibbiyot, flora, shifobaxsh, shaftoli, efir moyi, amigdalin glikozidi, shakar, olma kislota, izum kislota, limon kislota, askorbin kislota, kaliy, kalsiy, temir, pektin.

ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ И ВЛИЯНИЕ ПЕРСИКОВ НА ТЕЛО ЧЕЛОВЕКА.

Декканов Раҳматулло Султанович
Муминова Мағтуна Рустамжоновна
Наманганский Государственный университети

Аннотация: Растения, используемые в медицине для лечения и профилактики определенных заболеваний, называются лекарственными растениями. Флора Узбекистана очень богата лекарственными растениями. Выращивание и переработка лекарственных растений также является актуальной проблемой. Использование натуральных фруктов в качестве лекарства - одна из основных задач народной медицины.

Ключевые слова: медицина, флора, лекарство, персик, эфирное масло, гликозид амигдалина, сахар, яблочная кислота, виноградная кислота, лимонная кислота, аскорбиновая кислота, калий, кальций, железо, пектин.

CHEMICAL COMPOSITION AND EFFECTS OF PEACH FRUIT ON THE HUMAN BODY.

Dehqonov Rahmatillo Sultonovich
Muminova Maftuna Rustamjon qizi
Namangan State university

Abstract: The plants used in medicine to treat and prevent certain diseases are called medicinal plants. The flora of Uzbekistan is very rich in medicinal plants. Cultivation and processing of medicinal plants is also a topical issue today. The use of natural fruits as a medicine is one of the main goals of folk medicine.



Key words: Medicine, flora, medicinal, peach, essential oil, amygdalin glycoside, sugar, malic acid, grape acid, citric acid, ascorbic acid, potassium, calcium, iron, pectin.

Tabiatda shifobaxsh o'simliklar juda ko'plab uchraydi. Bu shifobaxsh o'simliklar tarkibida biologik aktiv moddalar ko'pdır. Shuning uchun qadim zamonlardan beri insoniyat o'simliklarni shifobaxsh vosita sifatida ishlatib keladi. Bizgacha saqlanib qolgan dorivor o'simliklar haqidagi qadimgi ma'lumotlar, asosan, yunon adabiyotlarida uchraydi. Yunonlar o'zlarida yetishtiriladigan dorivor o'simlikdan tashqari Misr, Eron va Osiyodagi boshqa mamlakatlardan keltirilgan dorivor mahsulotlardan ham foydalanishgan. Mashhur shifokor Suqrot (Gippokrat), Arastu (Aristotel) hamda ularning shogirdi Teofrast, farmakognoziya fanining „asoschisi“ Dioskorid va boshqa olimlarning shuhrati dunyoga yoyilgan. Ko'hna Rimda Galen va Pliniy Starshiy farmakognoziya bilan chuqur shug'ullangan. Shifokor Galen (eramizning 330-yillarida tug'ilgan) farmatsiya va tibbiyot sohasida bir qancha kitoblar yozgan. U o'z kitoblarida 304 ta dorivor o'simlik, 80 ta hayvon va 60 ta mineral moddadan olinadigan dorilarni to'liq tasviflaydi. Galen o'simlik va hayvon organlaridan tayyorlangan (tarkibida ta'sir etuvchi modda bo'lgan) dori turlari bilan bemorlarni davolashni birinchi bolib taklif etdi. Bu dorilar hozirgi kunda ham „Galen preparatlari“ nomi bilan yuritiladi. Galenning tibbiyot va farmatsiya sohasida yozgan asarlari hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Osiyoning janubi-sharqida joylashgan davlatlarda qadim zamonlardan bemorlar, asosan, dorivor o'simliklar bilan davolab kelinadi. Hindiston, Tibet, Xitoy va Arab tabobatchiligidagi ishlataladigan dorivor o'simliklar ayniqsa diqqatga sazovordir.

O'zbekistonda respublika dorivor o'simliklarini o'rganish, ularni zaxirasini aniqlash, tayyorlash, o'stirish va xorijiy mamlakatlardan keltirilgan turlarini ekip, ko'paytirish ishlari bilan Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent, Andijon, Samarcand, Buxoro tibbiyot, qishloq xo'jalik va boshqa institutlar, Universitetlar hamda Respublika Fanlar akademiyasiga qarashli O'simlik moddalarini kimyosi, Bioorganika, Botanika va boshqa ilmiy-tekshirish institutlari hamda Botanika bog'ining tegishli kafedralari va laboratoriya xodimlari shug'ullanib kelmoqdalar. Shifobaxsh o'simliklar tarkibida inson organizmi uchun zarur bo'lgan fiziologik faol moddalar, jumladan efir moyi, uglevodlar, glikozidlar, saponinlar, kumarinlar, mineral tuzlar, flavonoidlar, vitaminlar va boshqa biologik aktiv moddalar ko'pdır. Bunday shifobaxsh o'simliklardan biri bu shaftolidir.[1]

Yurtimizda pishib yetilgan meva-sabzavotlar inson organizmi uchun zarur bo'lgan mikroelement va vitaminlarga boy sanaladi. Birgina shaftoli mevasini olsak, uning tarkibidagi foydali elementlar inson salomatligini mustahkamlashda muhim o'rinn tutadi.

Shaftoli - ra'noguldoshlar (Rosaceae) oilasiga mansub bo'yli 3-5, ba'zan 8 m ga etadigan daraxt. Barglari ellipssimon-nishtarsimon, o'tkir uchli, arrasimon qirrali bo'lib, bandi bilan poya va shoxlarda ketma-ket o'mashgan. Oqish, pushti yoki qizil rangli, yirik 5 bo'lakli gullari yakka-yakka xolda poyasi bilan shoxlarida joylashgan. Mevasi - tuxumsimon, cho'ziq ellipssimon yoki dumaloq shaklda, turli rangdagi, eyiladigan, yoqimli mazali va sershira danakli xo'l meva. Mart-aprel oylarida (barg chiqarmay) gullaydi, mevasi iyun-sentyabrda pishadi.

Vatani - Xitoy. Markaziy Osiyo, Kavkaz, qrim, Moldaviya xamda Rossiyaning ayrim tumanlarida o'stiriladi.

Urug'i tarkibida moy, efir moyi, amigdaln glikozidi, emul'siya fermenti va boshqa moddalar bor. Yetilib pishgan shaftoli tarkibida 15 foizgacha shakar, olma, uzum, limon, askorbin (C vitamini) kislotalari, efir moyi, kaliy, kalsiy, temir kabi mineral moddalar, B



guruhiiga mansub vitaminlar, A provitaminini, pektin moddalari mavjud. Ayniqsa, uning sariq tuslisi o'zida juda ko'p miqdorda karotin moddasini saqlaydi. [2]

Shaftolining ozuqaviy qiymati ifodalanishi (100 gda).

1-jadval

Moddalar	massasi	Moddalar	massasi
Karbongidratlar	9,5 g	Organik kislotalar	0,7 g
Monosaxaridlar	8,3 g	Kraxmal	1,2 g
Yog'lar	0,1 g	Oqsillar	0,9 g
Suv	86,1 g	Kul	0,6 g

Shaftoli juda kam kaloriyaga ega bo'lib, 100 grammida 45 kkal. energiya mavjud.

Shaftolining kimyoviy tarkibi.

2-jadval

Vitaminlar		
Vitamini A	Vitamini B ₅	Vitamin E
Vitamini B ₁	Vitamini B ₆	Vitamin H
Vitamini B ₂	Vitamini B ₉	Vitamin PP
Metallar		
Litiy – Li	Magniy – Mg	Mis – Cu
Natriy – Na	Kalsiy – Ca	Rux – Zn
Kaliy – K	Alyuminiy – Al	Xrom – Cr
Tenir – Fe	Marganes – Mn	Nikel – Ni
Metallmasar		
Ftor – F	Xlor – Cl	Yod – J
Kremniy – Si	Fosfor – P	Otingugurt – S
Aminokislotalar		
aspartik kislota	glutamik kislota	sistein
alanin	prolin	tirozin
glisin	serin	

Mazkur mevada yuqori miqdorda uglevod va shakar moddasi mavjudligi sabab, semizlik va qandli diabet bilan og'igan bemorlarga uni iste'mol qilish tavsiya etilmaydi. Bundan tashqari shaftoli allergiya chaqirish xususiyatiga ega. Ayniqsa, usti gul changi bilan qoplangan shaftoli (tukli) turi allergen mahsulot sanaladi. Shu bois, bunday xastalik bilan og'riyotgan bemorlarga ham ushbu mevani iste'mol qilish mumkin emas. Shuningdek, ko'p miqdorda shaftoli yejish disbakterioz (ich ketishi) va ichaklar faoliyatining buzilishiga sabab



bo'lishi mumkin. Qolaversa, ushbu meva hayajonga beriluvchi insonlarga ham tavsiya etilmaydi. Chunki, u asab tizimini qo'zg'ash xususiyatiga ega.[3]

Shaftoli safro haydovchi va ich suruvchi xususiyatga ega. Uning tarkibidagi organik kislotalar va efir moylari me'da sekretsiya faoliyati va hazmni yaxshilaydi. U ishtahani ochadi. Shaftolida mineral moddalar bisyorligi sabab undan kamqonlik va gastrit (me'da shilliq qavati yallig'lanishi)da davo maqsadida qo'llaniladi. Tarkibida kaliy tuzi mavjudligi bois, u yurak bilan bog'liq kasallikkarda ham tavsiya etiladi.

Rasmiy tibbiyotda urug'idan moy olinadi va bodom moyi ?atori ishlatiladi. Bargi bilan guli surgi sifatida ishlatilishi mumkin. Undan tash?ari, siydik xaydovchi vosita sifatida ishlatiladi.

Qaynatma: Bargidan olingen qaynatma yoki shirasi siydik xaydovchi, engil surgi sifatida ishlatiladi. Mevasi vitaminga boy, oshqozon ishini faollashtiruvchi lazzatli ozuqadir.[4]

Shaftoli mevasi yurak kasalliklarida, nafas olish yo'llari shamollaganda, me'da shirasini ko'paytirish uchun va umuman quvvatlovchi vosita sifatida ishlatiladi.

O'zbekistonda axoli orasida shaftoli gulidan kuchli ich surgi dori sifatida ishlatiladi. Shaftoli gulini yig'ib barra xolatda maydalab, chuchvara yoki somsa qilib yeyilsa, kuchli ta'sir qiladi.

Shaftoli mevasi oshqozon bezlarining shira ajratish faolligini oshiradi, yog'li taomni hazm qilishga yordam beradi hamda qayt qilishning oldini olish xususiyatiga ega.

O'simlik sharbati buyrak-tosh kasalliklarida tavsiya etiladi.

O'simlik bargi va gullaridan siqb olingen suvi qandli diabetni davolash, shuningdek, gijjalarga qarshi vosita sifatida qo'llaniladi.

Yangi uzilgan shaftoli daraxti bargidan tayyorlangan bo'tqa xo'ppoz, chipqon, kuygan yara, neyrodermatit va boshqa teri kasalliklarida malham sifatida yaraning ustiga qo'yiladi.

Shaftoli mevasi kislotsi kam gastrit, enterokolit, jigari xasta va holdan toygan bemorlarga tanani mustahkamlovchi va oziqlantiruvchi vosita sifatida tavsiya etiladi.

Shuningdek, shifokorlar nafas a'zolari va yurak-qon tomir tizimi xastaliklarida shaftoli iste'mol qilishni maslahat berishadi.

Yurtimizda pishib yetilgan meva-sabzavotlar inson organizmi uchun zarur bo'lgan mikroelement va vitaminlarga boy sanaladi. Birgina shaftoli mevasini olsak, uning tarkibidagi foydali elementlar inson salomatligini mustahkamlashda muhim o'rinn tutadi. Shaftolining foydali va zararli xususiyatlari haqida ma'lumot bersak.

Ushbu meva daraxti issiqlikni xush ko'radi, bo'yi esa unchalik baland bo'lmaydi. Shox-shabbalarining kengligi, qolaversa, pushti rangda gullashi bilan boshqa mevalardan farqlanadi.[5]

Shaftolining vatani shimoliy Xitoy deb taxmin qilinadi. Ma'lumotlarga qaraganda, u Yevropaga Italiya orqali tarqalgan.

Bu meva safro haydovchi va ich suruvchi xususiyatga ega. Uning tarkibidagi organik kislotalar va efir moylari me'da sekretsiya faoliyati va hazmni yaxshilaydi. U ishtahani ochadi. Shaftolida mineral moddalar bisyorligi sabab undan kamqonlik va gastrit (me'da shilliq qavati yallig'lanishi)da davo maqsadida qo'llaniladi. Tarkibida kaliy tuzi mavjudligi bois, u yurak bilan bog'liq kasallikkarda ham tavsiya etiladi.

Yurak urishi muammolarida, kamqonlik, me'da-ichak xastaliklarida, organizmda kislota miqdori tushib ketganda, qorin dam bo'lganda ovqatlanishdan 15-20 daqiqa oldin $\frac{1}{4}$ stakan miqdorida shaftoli sharbati ichish tavsiya etiladi. Shuningdek, shaftoli mevasi vitaminlarga



boyligi sababli gripp va O'RFI kasalliklarini oldini olishda, infektion xastaliklarda, avitaminozda ham qo'llaniladi.[6]

Xalq tabobatida revmatizm, me'da-ichak kasalliklarida shaftoli guli va bargidan tayyorlangan damlama bemorlarga tavsiya etiladi. Shaftolining endigina uzib olingan gullari safro haydovchi va surgi vositasi sanaladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jo'rayev A. "Xalq tabobati", Sharq nashriyoti, Toshkent. 2008-y. 622 b
2. Umarov M, Usmonov I Tabobat asrori va shifo. 2-kitob. "Nasaf" nashriyoti. 2010, 395 b.
3. Abdiyeva O, Mamajonov L Dorivor o'simliklar va ularni yig'ish. T. "Turon-Iqbol". 2006, 135 b.
4. Umarov M, Omonov H, Yo'ldoshev O. Organik va biologik ximiyadan amaliy ishlari. Toshkent. 1994-y. 49 b.
5. Abdullayev Sh.V, Ergasheva H. „Vitaminlar“. (o'quv-uslubiy qo'llanma). Namangan, NamDU nashri, 2012 yil, 74 bet.
6. Qodirov A, G'iyosov B.J, Mirzamahmudov T. "Investitsiya va investitsiyalar bozorini takomillashtirish" Toshkent. 2005-y. 223 b.

PHLOMOIDES KAUFMANNIANA O'SIMLIGINING ELEMENT TAHLILI.

Muradov Murodjon Toxirjonovich¹

Karimov Abdurashid Musoxonovich²

¹Namangan davlat universiteti

²O'simlik moddalari kimyosi instituti

Annotatsiya: Zamoniaviy tibbiyotda o'simliklarning ko'p turlaridan nafaqat asosiy biologik faol moddalarning tarkibi, balki ularning element tarkibidan ham keng foydalilaniladi. Makro va mikroelementlar organizm immun tizim faolligini oshiradi va ular o'simliklarda mineral moddalar shaklida mavjud bo'ladi. Sink, selen, kaliy, mis, temir, kaltsiy kobalt va boshqa mikro- va makroelementlar tirik organism immun tizimining normal ishlashi uchun zarurdir.

Kalit soz: Phlomoides kaufmanniana, makro- va mikroelementlar, biologik faol moddalar, element tarkib, kül miqdori.

ЭЛЕМЕНТНЫЙ АНАЛИЗ РАСТЕНИЯ PHLOMOIDES KAUFMANNIANA

Мурадов Муроджон Тохиржонович¹

Каримов Абдурашид Мусохонович²

¹ Наманганский государственный университет,

²Институт химии растительных веществ

Аннотация: При использовании лекарственных растений в современной медицине важное значение имеют не только биологически активные вещества, но и элементный состав. Макро- и микроэлементы повышают активность иммунной системы организма, и они присутствуют в растениях в виде минеральных веществ. Цинк, селен, калий, медь, железо, кальций кобальт и другие микро- и макроэлементы необходимы для эффективного функционирования иммунной системы организма.



МУНДАРИЖА

ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ

01.00.00

ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ

PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

1	Yorug'lik nurining yuqori sezgir bo'yоq tarkibli quyosh foto elementlariga ta'sirini o'rGANISH. To'lqinov M.A.	3
2	A-Si:H асосидаги структураларда ёргулукни нотекис ютилишини фотоэлектрик параметрларга таъсирини лазер ёрдамида тадқиқ қилиш. Бабаходжаев У.С., Набиев А.Б., Нематуллаев Ж.Р., Исабоеева Ф.Д., Хайдарова Ф.Б., Тұхтаралиев А.Ш.	7
3	Python tilida xabar Dayjestlari bilan ishlash Otaxanov N.A.	13
4	Вероятность наследования несвязанных генов В 5-М поколении Полванов Р.Р., Шарипов Ф.М.	18
5	Иммиграцияли Беллман-Харрис тармоқланиш жараёнини яшаш даври Машраббоеев А., Умматалиев У.И., Ибрагимова Н.А.	20

КИМЁ ФАНЛАРИ

02.00.00

ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

CHEMICAL SCIENCES

6	Metallarni cho'zish uchun olingan yangi compositini infraqizil spektrofotometr tahlili Doliev G., Abdulkayev A., Umaraliev J., Jo'raev B., G'ofurov I.	24
7	Shaftoli mevasining kimyoviy tarkibi va inson organizmiga ta'siri. Dehqonov R.S., Muminova M.R.	29
8	Phlomoides Kaufmanniana o'simligining element tahlili. Muradov M.T., Karimov A.M.	33
9	Murakkab oksidli birikmalarda piroxlor tipli tuzilishga ega $\text{Na}_x\text{K}_{y-x}\text{SB}_y\text{W}_{2-y}\text{O}_6$ tarkibli fazalar hosil bo'lishi Bozorov X.N., Lupitskaya Yu.A., Doliyev G.A., Buchelnikov V.D., Abdullaeva G.U.	37
10	Fatalimid asosida olingan sorbentning sorbsion sig'imiini aniqlash Gafforova Sh., Turayev H.X., Sottiqulov E.S., Babamuratov B.E.	41
11	Metallarni cho'zish uchun olingan yangi compositini elektron mikroskop va element tahlili tahlili Doliev G. A., Abdulkayev A. B., Umaraliev J., Xabibullaev X., Saydullaeva G.	46
12	Карбоксиметилхитозан Bombyx Mori асосида нанотола олиш шароитлари Саттарова Д.М., Саттаров Т.А.	51